



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 97-105 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUB'EKTLAR XARAJATLAR SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARINI ICHKI NAZORAT TIZIMIDA ANIQLASH VA BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH



Raximov X.A.

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlarda xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlarini ichki nazorat tizimida aniqlash va baholashning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida xarajatlar samaradorligini baholashga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolar, jumladan, real vaqtda monitoringning yo'qligi, birlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimining mavjud emasligi, baholash uslubiyatining ishlab chiqilmaganligi va avtomatlashtirish darajasining pastligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sug'urta xizmatlari, xarajatlar samaradorligi, ichki nazorat tizimi, samaradorlik ko'rsatkichlari, kompleks baholash, ierarxik ko'rsatkichlar tizimi, riskka asoslangan nazorat, avtomatlashtirish, boshqaruv hisobi, ichki audit.

Аннотация: В данной статье изучаются теоретические и методологические основы определения и оценки показателей экономической эффективности в системе внутреннего контроля организаций, предоставляющих страховые услуги. В ходе исследования проанализированы основные проблемы, препятствующие оценке экономической эффективности, включая отсутствие мониторинга в режиме реального времени, отсутствие единой системы показателей, отсутствие разработки методологии оценки и низкий уровень автоматизации.

Ключевые слова: страховые услуги, экономическая эффективность, система внутреннего контроля, показатели эффективности, комплексная оценка, иерархическая система показателей, риск-ориентированный контроль, автоматизация, управленческий учет, внутренний аудит.

Abstract: This article studies the theoretical and methodological foundations of determining and assessing cost-effectiveness indicators in the internal control system of entities providing insurance services. In the course of the study, the main problems that hinder the assessment of cost-effectiveness were analyzed, including the lack of real-time monitoring, the absence of a unified system of indicators, the lack of development of an assessment methodology, and the low level of automation.

Keywords: insurance services, cost-effectiveness, internal control system, performance indicators, complex assessment, hierarchical indicator system, risk-based control, automation, management accounting, internal audit.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda sug'urta bozori moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida sug'urta sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2020-2025 yillarda sug'urta bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi doirasida sohaning YaIMdagi ulushi 2025 yilga kelib 1,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatining samaradorligini ta'minlashda xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish tizimi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Globallashuv sharoitlarida raqobatning kuchayishi, texnologik o'zgarishlar va tartibga soluvchi talablarning qattiqlashuvi sug'urta kompaniyalarini xarajatlar samaradorligini doimiy monitoring qilishga va baholashga majbur etmoqda.

Ichki nazorat tizimi sug'urta tashkilotining korxona boshqaruv tizimining ajralmas qismi bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, iqtisodiyligi va samaradorligini ta'minlashdan iborat. Ammo, amaliyotda ko'pgina sug'urta kompaniyalarida xarajatlar samaradorligini baholash uchun ishlatiladigan uslubiyatlar zaiflashgan, nazorat mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmagan va zamonaviy talablarga javob bermaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta tashkilotlarida xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish masalalari xorijlik va maxalliy olimlarning ko'plab ilmiy ishlarida o'rganilgan.

M.Erman va G.Skott (2005) o'z tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalarining operatsion xarajatlarini minimallashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish strategiyalarini tahlil qilganlar. Ular xarajatlar koeffitsienti (expense ratio) ni asosiy samaradorlik indikatori sifatida belgilashgan. R.Kaplan va D.Norton (1996) tomonidan ishlab chiqilgan "Balanced Scorecard" (Muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimi) konsepsiyasi sug'urta sohasida keng qo'llanila boshlandi. Bu tizim moliyaviy ko'rsatkichlarni strategik maqsadlar bilan bog'lashga imkon beradi. D.Farrell (2004) samaradorlikni o'lchashda "Data Envelopment Analysis" (DEA) metodologiyasini sug'urta sohasiga tatbiq etish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Bu usul nisbiy samaradorlikni baholashda qo'llaniladi.

Yevropa sug'urta va qayta sug'urtalash federatsiyasi (Insurance Europe, 2021) hisobotlarida Solvency II tizimi doirasida xarajatlarni nazorat qilish mexanizmlarining ahamiyati ta'kidlangan. Bu tizim risk-orientirlangan yondashuvni qo'llab, kapital yetarliligi bilan birga operatsion xarajatlarni ham nazorat ostiga oladi.

Rus olimlari L.I.Svetkova va T.A.Fedorova (2018) sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda xarajatlarni boshqarishning roli haqida keng tadqiqot olib borganlar. Ularning ishlarida xarajatlar tuzilmasini optimallashtirish usullari ko'rsatilgan.

Mamlakatimiz olimlari O.B.Abdullaev (2020) O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish istiqbollari va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalarini o'rgangan. Sh.T.Raxmatullaeva (2019) sug'urta tashkilotlarida ichki nazorat tizimini tashkil etish masalalarini tadqiq qilgan, ammo xarajatlar samaradorligiga alohida e'tibor qaratilmagan.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijalaridan shuni ko'rish mumkinki xalqaro adabiyotlarda xarajatlar samaradorligini baholash uchun turli metodologiyalar mavjud (koeffitsient tahlili, DEA, BSC), lekin ular milliy xususiyatlarni hisobga olmaydi. Rossiya tajribasi iqtisodiy o'xshashlik tufayli qiziqarli, ammo sug'urta bozorining rivojlanish darajasi farqlari mavjud. O'zbekistonda sug'urta sohasida ichki nazorat bo'yicha tadqiqotlar bor, lekin xarajatlar samaradorligini aniqlash va baholashning kompleks uslubiyati ishlab chiqilmagan. Raqamli texnologiyalar (AI, Big Data, Machine Learning) ni nazorat tizimiga integratsiyalash masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Shunday qilib, adabiyotlarni tahlil qilish O'zbekiston sug'urta kompaniyalari uchun moslashtirilgan, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan xarajatlar samaradorligini baholash uslubiyatini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlar xarajatlar samaradorligini ichki nazorat tizimida aniqlash va baholash uslubiyatini takomillashtirish maqsadida kompleks va ko'p bosqichli ilmiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, institutsional va funksional tahlil konsepsiyalari qabul qilinib, ular doirasida sug'urta tashkilotlarida xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, ularning xizmat turlari bo'yicha shakllanishi va ichki nazorat obyektiga aylanish jarayoni o'rganildi. Empirik tahlilda moliyaviy hisobotlar, ichki buxgalteriya registrlari va boshqaruv hisoboti ma'lumotlari asosida gorizontaal va vertikal tahlil, trend tahlili hamda taqqoslama tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sug'urta bozori so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sug'urta haqi yig'imlarining dinamikasini tahlil qilaylik:

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozori ko'rsatkichlari (2020-2024 yy.)¹

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024*
Sug'urta haqi yig'imi (mlrd so'm)	2,847	3,526	4,892	6,734	8,520
O'sish sur'ati (%)	-	23.8	38.7	37.7	26.5
YaIMdagi ulushi (%)	0.48	0.52	0.61	0.73	0.85
Faol sug'urta kompaniyalari soni	28	30	32	33	35
O'rtacha xarajatlar koeffitsienti (%)	28.4	27.9	29.3	30.1	31.2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sug'urta bozori barqaror o'sish namoyish ettirib kelmoqda. Lekin xarajatlar koeffitsientining oshishi (2020 yilda 28.4% dan 2024 yilda 31.2% gacha) tashvishli tendensiyani ko'rsatadi. Bu xarajatlarni boshqarishda muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

¹<https://napp.uz/storage/files/shares/pendata/2025/10/%D0%A1%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%85%20%D0%BE%D1%82%D1%87%D0%B5%D1%82%D1%82%D1%87%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%BA%202025%20%D0%B9%D0%B8%D0%BB%20%20uz.pdf>

O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining xarajatlar tuzilmasini tahlil qilish quyidagi natijalarni berdi:

2-jadval

Sug'urta kompaniyalarining xarajatlar tuzilmasi (2024 y., o'rtacha foizda)²

Xarajat turlari	Ulushi (%)	Nazorat darajasi
Sug'urta agentlari komissiyasi	38.5	O'rta
Xodimlarga ish haqi	24.3	Yuqori
Marketing va reklama	12.7	Past
Ijara va kommunal xizmatlar	8.9	Yuqori
Texnologiyalar va AT	6.8	Past
Ma'muriy xarajatlar	5.2	O'rta
Boshqa operatsion xarajatlar	3.6	Past
Jami	100.0	-

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki:

1. Agent komissiyalari eng katta xarajat qalami (38.5%) bo'lib, ularni nazorat qilish tizimi yetarlicha ishlamayapti.
2. Marketing xarajatlari (12.7%) yuqori bo'lsa-da, ularning samaradorligini baholash mexanizmlari yo'q.
3. AT xarajatlari (6.8%) nisbatan past, bu raqamlashtirishga yetarli investitsiya qilinmayotganidan dalolat beradi.

3-jadval

Ichki nazorat tizimidagi asosiy muammolar

Muammo	Aniqlangan kompaniyalar %	Og'irlik darajasi
Xarajatlarni real vaqtda monitoring qilish imkoniyatining yo'qligi	86.7	Yuqori
Birlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimining mavjud emasligi	80.0	Yuqori
Xarajatlar samaradorligini baholash uslubiyatining yo'qligi	73.3	Yuqori
Avtomatlashtirilgan nazorat tizimining zaifligi	66.7	O'rta

Manba: muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

Real vaqtda monitoringning mavjud emasligi (86,7%). Tadqiqot natijalariga ko'ra, sug'urta tashkilotlarining aksariyatida xarajatlar bo'yicha ma'lumotlar real vaqt rejimida kuzatilmaydi, balki oylik yoki choraklik hisobotlar orqali kechiktirilgan tarzda tahlil qilinadi. Bunday yondashuv ichki nazoratning preventiv (oldindan ogohlantiruvchi) funksiyasini zaiflashtiradi. Real vaqtda monitoring yo'qligi natijasida ortiqcha xarajatlar o'z vaqtida aniqlanmaydi, byudjetdan chiqish holatlari kechikkan holda ma'lum bo'ladi va tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilish imkoniyati cheklanadi. Ayniqsa, agentlik

²[https://napp.uz/storage/files/shares/pendata/2025/10/%D0%A1%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%85%20%D0%BE%D1%82%D1%87%D0%B5%D1%82\(1%20%D1%87%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%BA%202025%20%D0%B9%D0%B8%D0%BB%20\)%20uz.pdf](https://napp.uz/storage/files/shares/pendata/2025/10/%D0%A1%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%85%20%D0%BE%D1%82%D1%87%D0%B5%D1%82(1%20%D1%87%D0%BE%D1%80%D0%B0%D0%BA%202025%20%D0%B9%D0%B8%D0%BB%20)%20uz.pdf)

to'lovlari, da'volarni ko'rib chiqish xarajatlari va ma'muriy sarflar kabi dinamik xarajat moddalarida bu holat moliyaviy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Birlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimining yo'qligi (80%). Ichki nazorat tizimida xarajatlar samaradorligini baholash uchun yagona, birlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimining mavjud emasligi muhim muammo sifatida aniqlandi. Amalda har bir bo'lim yoki filial o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda alohida ko'rsatkichlardan foydalanadi, bu esa ma'lumotlarni taqqoslash, umumlashtirish va strategik tahlil qilishni qiyinlashtiradi. Birlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi yo'qligi natijasida xarajatlar samaradorligi to'g'risida parchalangan axborot shakllanadi, ichki nazorat natijalari esa korxona miqyosida to'liq manzarani aks ettirmaydi. Bu holat boshqaruvning tizimlilik tamoyiliga zid hisoblanadi.

Xarajatlarni baholash uslubiyatining ishlab chiqilmaganligi (73,3%). Tahlil shuni ko'rsatdiki, ko'plab sug'urta kompaniyalarida xarajatlar samaradorligini baholash uchun aniq, me'yoriy va hujjatlashtirilgan uslubiyat mavjud emas. Aksar hollarda baholash sub'ektiv fikrlarga yoki umumiy moliyaviy ko'rsatkichlarga tayanadi. Bu esa xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligi, ularning natija bilan bog'liqligi va tejamkorlik darajasini xolis baholashga imkon bermaydi. Uslubiyat yo'qligi ichki nazorat jarayonida standartlashtirishni qiyinlashtiradi va turli davrlar yoki bo'linmalar kesimida qiyosiy tahlil o'tkazish imkoniyatini cheklaydi.

Avtomatlashtirish darajasining zaifligi (66,7%). Xarajatlar samaradorligini baholashda avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining yetarli darajada joriy etilmagani ham muhim kamchilik sifatida qayd etildi. Qo'l mehnatiga asoslangan hisob-kitoblar, alohida elektron jadvallar va bir-biri bilan integratsiya qilinmagan dasturlar ma'lumotlar ishonchliligi va tezkorligini pasaytiradi. Avtomatlashtirish zaif bo'lgan sharoitda ichki nazorat tizimi katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Natijada xarajatlar samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlari kechikib qabul qilinadi yoki yetarlicha asoslanmagan bo'ladi.

Ushbu to'rtta omilning mavjudligi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlarda ichki nazorat tizimini takomillashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari va yagona uslubiy yondashuvlarni joriy etish zarurligini yaqqol ko'rsatib beradi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, eng katta muammo real vaqtda xarajatlarni kuzatish imkoniyatining yo'qligi hisoblanadi. Bu vaziyatda xarajatlarning oshib ketishi yoki noto'g'ri yo'nalishlarga sarflanishi faqat ma'lum davrdan keyingina ma'lum bo'ladi.

Xarajatlar samaradorligining kompleks ko'rsatkichlar tizimi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlarda xarajatlar ustidan ichki nazoratni tizimli, izchil va xolis amalga oshirishga xizmat qiladigan o'zaro bog'liq moliyaviy va nomoliyaviy indikatorlar majmuasidir. Ushbu tizimning asosiy maqsadi — sarflangan resurslar bilan erishilgan iqtisodiy natijalar o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlash, ortiqcha va samarasiz xarajatlarni o'z vaqtida vuyavlash hamda boshqaruv qarorlarini asoslangan axborot bilan ta'minlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va amaliy tadqiqotlar asosida quyidagi kompleks ko'rsatkichlar tizimi taklif etiladi:

4-jadval

Xarajatlar samaradorligining kompleks ko'rsatkichlar tizimi

Guruh	Ko'rsatkich nomi	Hisoblash formulasi	Normativ qiymat
I. Umumiy samaradorlik			
1	Xarajatlar koeffitsienti (Expense Ratio)	$(\text{Operatsion xarajatlar} / \text{Yozilgan sug'urta haqi}) \times 100\%$	$\leq 28\%$
2	Kombinirlangan koeffitsient (Combined Ratio)	$[(\text{To'langan talablar} + \text{Xarajatlar}) / \text{Yozilgan sug'urta haqi}] \times 100\%$	$\leq 95\%$
3	Xarajat daromadliligi (Return on Expenses)	Soliqdan oldingi foyda / Umumiy xarajatlar	≥ 0.25
II. Tuzilma bo'yicha samaradorlik			
4	Marketing xarajatlarining samaradorligi	Yangi shartnomalar soni / Marketing xarajatlari	Individual
5	Agent komissiyalarining samaradorligi	Agentlar orqali sug'urta haqi / Agentlarga komissiya	≥ 3.5
6	AT xarajatlarining samaradorligi	$(\text{Avtomatlashtirish tufayli tejalgan vaqt} \times \text{Ish haqi}) / \text{AT xarajatlari}$	≥ 1.5
III. Jarayon bo'yicha samaradorlik			
7	Shartnoma tuzish xarajatlari	O'rtacha xarajat 1 shartnomaga	Minimal
8	Talablarni ko'rib chiqish xarajatlari	O'rtacha xarajat 1 talabga	Minimal
9	Xizmat ko'rsatish xarajatlari	O'rtacha xarajat 1 mijozga	Minimal
IV. Dinamika ko'rsatkichlari			
10	Xarajatlar o'sish indeksi	Joriy davr xarajatlari / Bazis davr xarajatlari	$\leq$ Daromad o'sish indeksi
11	Xarajatlar elastikligi	$\text{Xarajatlar o'sishi \%} / \text{Ishlab chiqarish hajmi o'sishi \%}$	< 1

Manba: muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.


Kompleks ko'rsatkichlar tizimi, odatda, moliyaviy samaradorlik, operatsion samaradorlik, texnologik samaradorlik va boshqaruv samaradorligi kabi to'rtta asosiy blokni o'z ichiga oladi. Moliyaviy blokda operatsion xarajatlar koeffitsienti, bir polisga to'g'ri keladigan xarajat, xarajatlar va sug'urta mukofotlari nisbati kabi ko'rsatkichlar qo'llanilib, ular kompaniyaning umumiy tejamkorlik darajasini aks ettiradi. Operatsion samaradorlik ko'rsatkichlari esa jarayonlar tezligi, da'volarni ko'rib chiqish muddati, xodimlar unumdorligi orqali xizmat ko'rsatish sifatini baholash imkonini beradi.

Texnologik samaradorlik ko'rsatkichlari avtomatlashtirish darajasi, raqamli jarayonlar ulushi va IT xarajatlarining iqtisodiy qaytimini ifodalaydi. Boshqaruv samaradorligi esa byudjet intizomi, xarajatlar bo'yicha reja va fakt farqi, ichki nazorat

natijalarining ijro etilish darajasi orqali aniqlanadi. Muhim jihati shundaki, mazkur ko'rsatkichlar bir-birini to'ldirgan holda qo'llanilib, ichki nazorat tizimida yagona axborot makonini shakllantiradi.

Natijada xarajatlar samaradorligining kompleks ko'rsatkichlar tizimi sug'urta tashkilotlarida faqat hisob-kitob vositasi emas, balki strategik boshqaruv va riskka asoslangan ichki nazoratning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

Xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlarining ierarxxik tizimi



1-rasm. Xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlarining ierarxik tizimi

Manba: muallif tomonidan ma'lumotlar asosida ishlab chiqildi.

ER (Expense Ratio) – Xarajatlar koeffitsiyenti, CR (Combined Ratio) – Yig'ma (kombinatsiyalangan) ko'rsatkich, ROE (Return on Expenses) – Xarajatlar rentabelligi, MXS - Marketing xarajatlari samaradorligi, AKS - Agent komissiyasi samaradorligi, ATS - AT xarajatlari samaradorligi, ShTX - Shartnoma tuzish xarajatlari, TKX - Talablarni ko'rib chiqish xarajatlari, XKX - Xizmat ko'rsatish xarajatlari, XO'I - Xarajatlar o'sish indeksi, XE - Xarajatlar elastikligi.

Xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlarining ierarxik tizimi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlarda xarajatlarni baholash va nazorat qilishni turli boshqaruv darajalari kesimida muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan ko'p pog'onali ko'rsatkichlar majmuasidir. Mazkur tizimning asosiy mohiyati shundaki, xarajatlar samaradorligi umumiy strategik maqsadlardan boshlab, alohida biznes-jarayonlar va operatsiyalar darajasigacha izchil ravishda detallashtiriladi.

Ierarxik tizimning yuqori pog'onasida strategik ko'rsatkichlar joylashadi. Ularga operatsion xarajatlar koeffitsienti, xarajatlar va sug'urta mukofotlari nisbati, umumiy rentabellikka ta'sir etuvchi xarajat indeksi kabi ko'rsatkichlar kiradi. Ushbu indikatorlar kompaniya rahbariyati uchun umumiy moliyaviy samaradorlikni baholash va uzoq muddatli qarorlar qabul qilishda asosiy axborot manbai hisoblanadi.

O'rta pog'ona taktik ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Bu darajada xarajatlar samaradorligi bo'limlar, filiallar yoki xizmat turlari kesimida baholanadi. Masalan, bir

polisga to'g'ri keladigan xarajat, da'volarni ko'rib chiqish xarajatlari, agentlik to'lovlari ulushi kabi ko'rsatkichlar orqali alohida funksional yo'nalishlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Ushbu pog'ona ichki nazorat tizimida joriy monitoring va reja-fakt tahlilini amalga oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Quyi pog'onada esa operatsion ko'rsatkichlar joylashadi. Ular konkret jarayonlar va operatsiyalar darajasidagi xarajatlarni aks ettiradi, jumladan, bitta da'voni ko'rib chiqish qiymati, bitta xodimga to'g'ri keladigan xarajat yoki bir operatsiyaga sarflangan vaqt va resurslar. Bu ko'rsatkichlar ichki nazoratning operativ funksiyasini ta'minlab, samarasizlik manbalarini aniqlash imkonini beradi.

Shu tariqa, xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlarining ierarxik tizimi sug'urta tashkilotlarida strategik, taktik va operatsion darajalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlab, ichki nazorat tizimining samaradorligini kompleks ravishda oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi sub'ektlarda xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlarini ichki nazorat tizimida aniqlash va baholash uslubiyatini takomillashtirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xarajatlar samaradorligini baholash faqat hisob-kitob vazifasi emas, balki strategik boshqaruv vositasi sifatida qaralishi lozim.

Biz tadqiqotimiz natijasida quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqdik.

Birinchidan, ichki nazorat tizimi doirasida xarajatlar samaradorligini baholash uchun yagona kompleks va ierarxik ko'rsatkichlar tizimini joriy etish zarur. Ushbu tizim strategik, taktik va operatsion darajalarni qamrab olgan holda, xarajatlar va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ifodalashi lozim. Birlashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi ichki nazorat natijalarini umumlashtirish, bo'linmalar kesimida taqqoslash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchidan, xarajatlar samaradorligini baholashda riskka asoslangan uslubiy yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda xarajatlar yuqori, o'rta va past risk toifalariga ajratilib, ichki nazorat resurslari eng katta xavf manbalariga yo'naltiriladi. Bu yondashuv nazorat samaradorligini oshirish bilan birga, ortiqcha tekshiruvlarni qisqartirish va nazorat xarajatlarini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, xarajatlar samaradorligi ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida monitoring qilishni ta'minlovchi avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish zarur. Buxgalteriya hisobi, boshqaruv hisobi va ichki nazorat ma'lumotlarining integratsiya qilinishi orqali xarajatlar bo'yicha og'ishlar o'z vaqtida aniqlanadi va tezkor boshqaruv qarorlari qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

To'rtinchidan, xarajatlar samaradorligini baholash natijalarini ichki audit va boshqaruv hisoboti tizimi bilan uzviy bog'lash maqsadga muvofiq. Bu orqali nazorat natijalari faqat axborot vazifasini emas, balki amaliy ta'sir mexanizmlarini ham shakllantiradi, ya'ni samarasiz xarajatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur taklif va tavsiyalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish O'zbekiston sug'urta kompaniyalarining xarajatlar samaradorligini nazorat qilish tizimini xalqaro standartlar

darajasiga ko'tarishi, moliyaviy barqarorlikni mustaxkamlashi va raqobatbardoshlikni oshirishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 15 maydagi PF-5992-son "Sug'urta sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. Abdullaev O.B. Sug'urta bozorining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. 2020. №3. B. 45-52.
3. Raxmatullaeva Sh.T. Sug'urta tashkilotlarida ichki nazorat tizimini takomillashtirish // Moliya jurnali. 2019. №4. B. 67-74.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Sug'urta bozori statistik ma'lumotlari. 2020-2024 yy.
5. Kaplan R., Norton D. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Harvard Business School Press, 1996.
6. Eling M., Luhnen M. Efficiency in the International Insurance Industry: A Cross-Country Comparison // Journal of Banking & Finance. 2010. Vol. 34. P. 1497-1509.
7. Farrell M.J. The Measurement of Productive Efficiency // Journal of the Royal Statistical Society. 1957. Vol. 120. P. 253-290.
8. Insurance Europe. European Insurance in Figures 2021. Brussels, 2021.
9. Цветкова Л.И., Федорова Т.А. Страхование: учебник. Москва: Магистр, 2018. 456 с.
10. PwC. Global Insurance Report 2024: Digital Transformation and Cost Optimization. 2024.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

